

MAMLAKATLARDA O'ZARO TASHQI SAVDO SIYOSATIDAGI TO'SIQLAR VA MUAMMOLAR

Zoirov Azamat

Buxoro Davlat Universitet

“Iqtisodiyot va turizm fakulteti”, Iqtisodiyot
(tarmoqlar va sohalar) yo'nalishi

3-2 IQT -20-guruh talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11083662>

Annotatsiya. Ushbu tezisda, asosan, tashqi savdoning qanchalik davlat uchun muhim rol o'ynashi, dolzarbligi, bugungi kundagi holati xususida so'z yuritilgan. Tashqi savdo butun dunyo mamlakatlari o'rtasida do'stlikni va hamkorlikni mustahkamlaydi.

Kalit so'zlar: import, eksport, proteksionizm, modernizatsiyalash, diversifikatsiyalash, investitsiya, islohot, soliq, subsidiya, valyuta tushumi.

Hozirgi kunda davlatlar o'rtasidagi xalqaro savdoning rivojlanishi, ishlab chiqarish integratsiyalashuvining kengayishi va takomillashuvi tashqi iqtisodiy faoliyatning yanada erkinlashuviga sabab bo'lmoqda. Bugungi bozor islohotlari munosabatlarning yangi strategiyasi asosiy yo'nalishlaridan biri-tashqi iqtisodiy faoliyatni oqilona tartibga solishni muvofiqlashtirish hisoblanadi. Tashqi iqtisodiy faoliyatni oqilona tartibga solish davlat iqtisodiy rivojlanish strategiyasining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. O'tish davri iqtisodiyotini boshidan kechirayotgan mamlakat tashqi iqtisodiy aloqalarini kengaytirish uchun o'zini erkin bozor girdobiga tashlab qo'ya olmaydi. Tashqi iqtisodiy faoliyat tashqi savdoga asoslanadi. Chunki bunday faoliyat tufayli mamlakatlar o'z ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining jahon iqtisodiyoti bilan ichki bozorning tashqi bozor bilan o'zaro hamkorligi uchun sifat jihatdan yangi negizlarni shakllantiradigan tub bozor o'zgarishlarini amalga oshirish obyektiv ravishda tashqi iqtisodiy omilni kuchaytirishni taqazo etmoqda. Bularning hammasi O'zbekistonning tashqi iqtisodiy siyosatini va ro'yobga chiqarish mexanizmini ishlab chiqishni talab etadi.

Bugungi kunda O'zbekiston jahon hamjamiyatida o'zining mustaqil ovozigacha bo'lgan davlat darajasiga ko'tarildi va nufuzli xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'ldi. Dunyodagi sanoati rivojlangan yetakchi mamlakatlar bilan siyosiy-diplomatik, savdo-iqtisodiy va madaniy aloqalar o'rnatmoqda. Ikki va ko'p tomonlama manfaatli aloqalar tobora rivojlanib bormoqda. Mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlanishida nafaqat aholining oziq-ovqat va sanoat mahsulotlariga hamda turli xil xizmatlarga nisbatan o'sib borayotgan ehtiyojlarini to'liq qondirishda balki, respublikadagi barcha ishlab chiqarish sohalarining tayyor texnik va texnologiyalarga bo'lgan ehtiyojlarini ta'minlashda tashqi savdo, ya'ni eksport va import muhim o'rin egallab, bugungi iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash sharoitida uning ahamiyati kattadir. O'zbekistonda tashqi savdo va uning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi ahamiyati, eksport va import munosabatlarini rivojlantirishning innovatsion boshqaruv samaradorligi masalalari bo'yicha muammoning umumiy tomonlari qator iqtisodchi olimlarimiz tomonidan o'rganilgan. Ularning ishlari xo'jalik yuritishning bozor iqtisodiyoti sharoitida tashqi savdo va eksport va import munosabatlarini samarali samarali yuritish nazariyasi va amaliyotini ishlab chiqishga katta hissa qo'shgan. N.A. Asqarovning ilmiy

izlanishlarida “O‘zbekiston Respublikasida tashqi savdo va bojxona sohaslarini uyg‘un boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish” jarayonlari mavzusida bojxona siyosatining mohiyati, uni samarali va iqtisodiy xavfsizlikka yondashuv negizida tashqi savdoni bojxona omili asosida boshqarish va tashqi savdo tarkibini optimallashtirish ishlarini tartibga solish kabi jihatlariga ko‘proq e‘tibor qaratilgan.

Tashqi savdo siyosatini Xitoy misolida ko‘rib chiqamiz. Xitoy dunyodagi eng qadimgi savdo kuchlaridan biridir. Dengiz savdosi Xitoyda yangi davrning dastlabki davrida ham, buyuk geografik kashfiyotlar davrida ham rivojlangan. Xitoy o‘zining an‘anaviy mahsulotlarini eksport qiladi. Ipak, paxta, choy, soya va ba‘zi tog‘-kon xom-ashyo, shuningdek import qilinadigan oziq-ovqat va turli sanoat mahsulotlari. Bu Xitoy eng ajoyib muvaffaqiyatga erishgan tashqi iqtisodiy aloqalar turidir. Iqtisodiy islohotlar boshlanganidan keyin yillik o‘shish sur‘atlari bo‘yicha tashqi savdo Xitoyning juda yuqori YaIM o‘shish sur‘atlaridan ham sezilarli darajada oshib ketgani aytish kifoya. 2008-yilda YaIMning 10%dan kamrog‘i tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida shakllangan edi. Iqtisodiyotni rivojlantirishning ikki modeli import o‘rnini bosuvchi va eksportga yo‘naltirigan modellarni oqilina uyg‘unlashtirish ham katta ahamiyatga ega. Eksport bo‘yicha Xitoy 2020-yilda AQSH va Germaniyani ortda qoldirib, dunyoda birinchi o‘rinni egalladi, import bo‘yicha AQSHdan keyin ikkinchi o‘rin Xitoy tashqi bozorga paxta va shoyi, gazlamalar, trikotaj, kiyim-kechak, poyabzal, o‘yinchoqlar, sport va sayyohlik mollarini yetkazib beradi. Xitoy dunyo eksportining 1/3 qismini radiotexnika bilan ta‘minlaydi. Xitoy, shuningdek, neft va neft mahsulotlari temir rudalari va bundan tashqari, qora metal prokati va kimyoviy moddalarni import qilishga majbur. Qo‘shimcha qilish mumkinki, Xitoy asosiy qurol importchisi hisoblanadi. Xitoy dunyoning 180 dan ortiq davlat bilan savdo qiladi.

Tashqi savdo aloqalarining samaradorligini yanada oshirish, tashqi savdoni liberallashtirish, eksport salohiyatini mustahkamlash hamda raqobatbardosh mahalliy mahsulotni tashqi bozorlarga chiqarish tizimini takomillashtirish, mahsulot ishlab chiqaradigan korxonalar bilan xorijiy sheriklar o‘rtasida savdo sohasida uzoq muddatli barqaror sherikchilik munosabatlarini shakllantirish maqsadida O‘zbekistonda quyidagi ishlar amalga oshirilmoqda;

-O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi etib qayta tashkil qilinshi.

-O‘zbekiston Respublikasi Tashqi savdo vazirligi vakolatli organ bo‘lib, tashqi savdo sohasida davlat siyosatini shakllantirish va amalga oshirish uchun mas‘ul hisoblanadi hamda tashqi savdo faoliyatini tartibga solish sohasida davlat boshqaruvi organlari ishini muvofiqlashtirilishi.

Quyidagilar O‘zbekiston Respublikasi Tashqi savdo vazirligining asosiy vazifalari va faoliyat yo‘nalishi hisoblanadi;

- tashqi savdo faoliyati sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqarish va amalga oshirish;
- tovarlar, ishlar va xizmatlar eksportini qo‘llab-quvvatlash
- ishonchli savdo sheriklarini izlash
- import bo‘yicha keltiriladigan tovarlarning hajmi va tarkibini chuqur tahlil qilish
- tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish choralarini amalga oshirish bo‘yicha takliflar kiritish

-O'zbekiston Respublikasining tashqi savdo infratuzilmasini rivojlantirish, xususan, tranzit salohiyatini, logistika va transport yo'nalishlarini rivojlantirish masalalarini bo'yicha chora tadbirlar ishlab chiqish va amalga oshirish

Buni O'zbekiston misolida ko'rib chiqamiz. Mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan, tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi. 2020-yilning yanvar-iyun oylari yakuni bilan respublikaning tashqi savdo aylanmasi 15 855 800 AQSh dollarini tashkil etib, 2019-yilning mos davriga nisbatan 3 528 000 AQSH dollariga yoki 18.2% ga kamaydi. Tashqi savdo aylanmasida hajmi 6 285 400 AQSH dollariga va import hajmi 9 570 400 AQSH dollariga yetdi. Hisobot davrida 3 285 000 AQSH dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi. O'zbekiston jahonning 150 dan ortiq mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. Tashqi savdo aylanmasining salmoqli hissasi Xitoy, Rossiya, Qozog'iston, Koreya, Turkiya, Qirg'iz va Germaniyada qayd etilgan. 2020-yil tubdan farq qilib, yanvar va fevral oylarida tashqi savdo aylanmasi 2.9 milliard AQSH dollari darajasida qayd etilgan bo'lsa, mart oyiga kelib 2.2 milliard AQSH dollariga kamayishni tashkil etdi. 2023 yilda eng katta pasayish may oyida 2 161 600 AQSH dollari ko'rsatkichida qayd etildi. Tashqi savdo aylanmasining so'nggi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so'nggi uch yilda Qirg'iziston, Tojikiston va Afg'oniston bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoqda. 2023 yilning yanvar-iyun oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 34.4% ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi 2022-yilga nisbatan ulushi 3.8% ga kamaygan. Joriy yilning yanvar-iyun oylarida mamlakatning ekportyorlari soni 4573 tani tashkil etib, ular tomonidan 4160800 AQSH dollari qiymatida Tovar va xizmatlar eksport qilinishi ("") ta'minlandi. 2022-yilning yanvar-iyun oylarida import hajmi 9570400 AQSH dollari va 2021-yilning mos davriga nisbatan 85% ni tashkil etdi. Import tarkibida eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunalari, sanoat tovarlari hamda kimyoviy vositalar hisobiga to'g'ri keladi.

Savdo siyosati-budjet-soliq siyosatining, tashqi savdo hajmlarini soliqlar, subsidiylar, valyutalar nazorati va import yoki eksportni to'g'ridan-to'g'ri cheklashlar orqali tartibga solishni o'z ichiga olgan, nisbatan mustaqil yo'nalishlardir. Tashqi savdoni tartibga solishda eng ko'p qo'llaniladigan usul importga ta'rif belgilash bo'lib, buning natijasida ichki baholarning o'sishi kuzatiladi. Importga ta'riflarni joriy qilishdan iste'molchilar ko'rgan zarar ishlab chiqarish va davlat ko'rgan foydadan katta bo'ladi. Importga ta'riflarni joriy qilishdan ko'riladigan zarar foyda va zararlar nisbati munozarali masaladir. Ammo import ta'riflari ichki ishlab chiqaruvchilarni himoya qilish, to'lov balansini tartibga solish maqsadlarida keng qo'llaniladi. Eksportga subsidiyalar, valyuta tushumini ko'paytirish, ortiqcha mahsulotdan qutulish, tashqi bozorni egallash uchun qo'llaniladi. Tashqi iqtisodiy faoliyatni litsenziyalash va kvotalar o'rnatish xalqaro savdoni tartibga solishning bevosita usulidir. Xalqaro savdo siyosati vositalari va tadbirlari mamlakat iqtisodiyoti holatidan kelib chiqib yechilayotgan vazifalarga muvofiq tanlanadi. 2023-yilda O'zbekiston tashqi savdo aylanmasi 16% ga o'sdi. 2023-yilda O'zbekiston tashqi savdo aylanmasi 42.1 mlrd AQSH dollarini tashkil etdi. Eksport hajmi 10% ga oshib, 16.6 mlrd AQSH dollariga yetgan bo'lsa, import 20.4% ga o'sib, 25.46 mlrd AQSh dollarini tashkil etdi. Sanoat tovarlari eksporti oltin eksportidan o'zib ketdi. Tashqi savdo aylanmasining manfiy tashqi savdo balansi 8.85 mlrd AQSH dollarini tashkil etdi. 2023-yilda O'zbekiston eksportining asosiy qismini sanoat tovarlari, oltin,

xizmatlar va oziq-ovqat tashkil etdi. O'tgan yili davomida O'zbekiston importining asosiy qismini mashinalar va asbob-uskunalar importi, sanoat tovarlari, kimyoviy vositalar, oziq-ovqat tovarlari va xizmatlar tashkil etdi.

References:

1. Vaxobov A.V., Xojibakiev Sh.X., Mo'minov N.G. "Xorijiy investitsiyalar". O'quv qo'llanma. - T.: Moliya, 2010. - 328 b.
2. Вахабов А.В., Разыкова Г.Х., Хажибакиев Ш.Х. Иностранные инвестиции и модернизация национальной экономики. Монография. Т.: Молия, 2011. - 300 с.
3. Bekmurodov A.Sh., Karrieva Ya.K., Ne'matov I.U., Nabiev D.H., Kattaev N.T. Xorijiy investitsiyalar. O'quv qo'llanma. - T.: Iqtisodiyot, 2010. - 166 b.
4. Mamatov B., Xujamkulov D., Nurbekov O. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. Darslik. - T.: Iqtisod-Moliya, 2014. - 608 b.
5. Kayumov R.I., Xojimatov R.X. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish: Darslik. - T.: TDIU, 2010. - 496 b.

